



# SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## 2021- YILNING YANVAR-OKTABR OYLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar  
ulushi –  
67,0 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
3 785,6  
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi –  
15 060,3  
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlikning  
ulushi –  
67,7 %**

**Ko'rsatilgan  
bozor  
xizmatlarining  
o'sish  
sur'atlari -  
121,2 %**

**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan xizmatlarning  
o'sish sur'atlari –  
118,9 %**

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar




**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **15 060,3** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **3 670,2** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **121,2 %** ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>15 060,3</b>	<b>121,2</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	683,6	115,9
Moliyaviy xizmatlar	2 169,7	122,3
Transport xizmatlari	3 749,4	123,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 541,2	120,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	442,7	122,2
Savdo xizmatlari	4 212,5	110,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	367,4	129,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	753,9	136,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	309,7	141,0
Ijara xizmatlari	472,0	124,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	421,3	128,5
Shaxsiy xizmatlar	628,8	118,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	494,0	177,5
Boshqa xizmatlar	355,3	123,1

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-oktabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **28,0** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport (**24,9** %), moliyaviy xizmatlar (**14,4** %), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar (**5,0** %) bo'yicha qayd etildi.

# Samarqand viloyati statistika boshqarmasi



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021-yilning yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari hajmi **3 749,4** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2020- yilning shu davriga nisbatan **23,7** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **24,9** % ni tashkil etdi.

## Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi




2021- yilning yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **94,4** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **96,5** % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

## Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-oktabr

2021- y. yanvar-oktabr

28,4

28,6

71,6

71,4



Yo'lovchi tashish



Yuk tashish

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **71,4 %** ga yetdi.


**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **71,6 %** ni tashkil etgan.





2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **28,0 %** ni tashkil etib, bu **4 212,5** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **3 417,5** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **30,0 %** iga to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

2021- y.  
yanvar-  
oktabr

4 212,5  
mlrd. so'm



3 417,5  
mlrd. so'm



Hajmning  
o'sishi

110,1 %



102,3 %

2020- y.  
yanvar-  
oktabr



2021- yil yanvar-oktabr


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **76,3 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **14,9 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **8,8 %** ni tashkil etdi.

## Savdo xizmatlarining tarkibi

(2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)




**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo ulushi **75,5 %** ga yetdi.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

2021- yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **2 169,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **1 735,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **14,4** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi **15,2** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **434,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **22,3** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati **130,9** % ni tashkil etgan.



## 2021- yil yanvar-oktabr

## Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,2 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **3,8 %** ini tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

Yordamchi moliyaviy  
faoliyat



Sug'urta bo'yicha  
xizmatlar



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **93,1 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.


Sug'urta va nafaqa  
ta'minoti bo'yicha  
xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,0 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar  
– **2,9 %**.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**2020- y.  
yanvar-oktabr**

582,3  
mlrd. so'm

107,8 %

5,1 %

**2021- y.  
yanvar-oktabr**

683,6  
mlrd. so'm

115,9 %

4,5 %




2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **753,9** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,0 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **136,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiyava gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.


## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.  
Yanvar-oktabr




2020- y.  
Yanvar-oktabr

309,7 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi




202,6 mlrd. so'm

2,1 %




Xizmatlarning  
jami hajmidagi ulushi




1,8 %

141,0 %



O'sish sur'ati



97,9 %

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

320,9 mlrd.  
so'm

442,7 mlrd.  
so'm

Xizmatlar  
hajmi

2020- y.  
yanvar-oktabr

2021- y.  
yanvar-oktabr

86,0 %

122,2 %

O'sish  
sur'ati



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar


2020-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **121,8** mlrd. so'mga ko'paydi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2020- y.  
yanvar-  
oktabr

2021- y.  
yanvar-  
oktabr



Yashash bo'yicha  
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar


2021- yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,3** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **91,2** % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

3 785,6  
ming so'm

Hajmning  
o'sishi

867,3  
ming so'mga

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 785,6** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,9 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 918,3** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,1 %** da qayd etilgan.

118,9 %

O'sish sur'ati

